



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son

Кучга кириш санаси

21.10.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO TA'LIM DASTURLARINI JORIY QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Kasbiy ta'lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida:

1. Kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimini joriy qilish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish;

kasbiy ta'lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish;

kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish, o'qitish yakuni bo'yicha beriladigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, kasbiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus elektron platformani joriy qilish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarini zarur o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va raqamli kontentlar bilan ta'minlash, ularning laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy uskunalardan jihozlash;

kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushbu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

2. "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kasbiy ta'lim tashkilotlarining amaldagi turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona texnikumlar tarmog'ini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Belgilansinki, texnikumlarda:

kadrlar tayyorlash Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi va O'zbekiston milliy malaka tizimi talablariga mos ravishda tashkil etiladi;

boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi, shuningdek, malaka va kompetensiyalar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi;

boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o'quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun — to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to'lov-kontrakt asosida tashkil etiladi;

turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlanadi hamda ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish muddatlari o'quvchi tomonidan oldin o'zlashtirilgan modullardan kelib chiqib belgilanadi;

o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarining bitiruvchilariga o'zlashtirgan modullari, to'plagan kreditlari va oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o'rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning tegishli bosqichidan o'qishni davom ettirishga ruxsat etiladi;

zarur metodik va pedagogik ta'minot, o'quv va laboratoriya xonalari, ustaxona jihozlari, amaliyot bazalari hamda ish beruvchilarning buyurtmalari mavjud bo'lgan taqdirda, oldin o'qitish yo'lga qo'yilmagan ta'lim darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishga ruxsat etiladi.

3. Quyidagilar:

2025-yil 1-yanvardan boshlab negizida texnikumlar tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ro'yxati [1-ilovaga](#) muvofiq;

Texnikumlar faoliyatini moliyalashtirish tartibi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur Farmonning [1-ilovasida](#) ko'rsatilgan oliy ta'lim muassasalari zimmasiga ularga birlashtirilgan texnikumlarga o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash vazifalari yuklansin.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov) bilan birgalikda mazkur Farmonning [3-ilovasida](#) ko'rsatilgan kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quvchilariga amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishini yakunlashi uchun zarur sharoit yaratsin.

4. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi (A. Aripov) 2025-yil 1-sentabrga qadar ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalarini [4-ilovaga](#) muvofiq kadrlar buyurtmachisi va sanoat hamkori sifatida texnikumlarga birlashtirsin.

Belgilansinki:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari zimmasiga texnikumlarni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarni yo'naltirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, o'quvchilar uchun amaliyot bazalarini tashkil etish, dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash, rahbar va pedagog kadrlarni moddiy rag'batlantirish hamda ularning stajirovkasini tashkil etish vazifalari yuklanadi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalariga mazkur Farmon bilan ular zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun budjetdan tashqari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'larni [5-ilovadagi](#) xarajatlarga yo'naltirish huquqi beriladi.

5. Belgilab qo'yilsinki, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab texnikumlarga:

ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan ishchi o'quv rejasi va dasturlarini qayta ko'rib chiqishga, shu jumladan, buyurtmachilarning takliflariga muvofiq fanlarni bir-biriga integratsiya qilishga hamda ajratilgan soatlar doirasida mutaxassislik va umumkasbiy fan (modul)larning soatlarini 30 foizgacha o'zgartirishga;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlari ishtirokida to'lov-kontrakt asosidagi qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilishga;

mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga, ushbu dastur va kurslarning ta'lim tili va o'qitish qiymatini mustaqil belgilashga;

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil qilishga;

kasbiy ko'nikmalar markazlaridan amaliyot bazalari sifatida bepul foydalanishga ruxsat beriladi.

6. Texnikumlarda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashning shunday tartibi joriy etilsinki, unga muvofiq:

a) texnikumlarga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari har yili 1-martga qadar tasdiqlanadi. Bunda:

texnikumlarda o'tkaziladigan kirish imtihonlari shakli [4-ilovadagi](#) kadrlar buyurtmachilari va sanoat hamkorlari bilan kelishgan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi;

dual ta'lim shaklida o'quvchilarni qabul qilish ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

kasbiy ta'lim dasturlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi hamda kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyotga kiritiladi;

bitiruvchilarni yakuniy baholash soha ekspertlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, baholash tashkilotlari, ish beruvchilar, uyushmalar va tadbirkorlik subyektlari birlashmalari vakillari ishtirokida demonstratsion imtihonlar shaklida amalga oshiriladi;

kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjatlarni berishning yagona tartibi joriy etiladi. Bunda kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan shaxslarga — diplomlar, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga — o'qigan moduliga qarab tegishincha kompetensiyani (malakani) egallaganlik to'g'risidagi sertifikatlar beriladi;

v) 2026-yil 1-yanvardan boshlab o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan talab Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Kasbiy ta'lim" platformasi orqali shakllantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

g) texnikumlarga o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini xorijiy korxonalar va tashkilotlarda amaliyotni tashkil etish bo'yicha shartnoma imzolagan holda tashkil etishga ruxsat beriladi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoniga asosan "g" kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)

7. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov) Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda 2025-yil 1-sentabrga qadar:

"Kasbiy ta'lim" platformasini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy qilsin hamda uning "Elektron hukumat" tizimi bilan integratsiyasini ta'minlasin;

barcha yuridik va jismoniy shaxslarga "Kasbiy ta'lim" platformasidan ochiq va bepul foydalanish imkoniyatini yaratsin.

8. Quyidagilar:

"Kasbiy ta'lim" platformasining faoliyat yuritish tartibi [6-ilovaga](#) muvofiq;

"Kasbiy ta'lim" platformasi orqali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish tartibi [6.1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari "Kasbiy ta'lim" platformasiga zarur ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida kiritish bo'yicha shaxsiy javobgar etib belgilansin.

9. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining 2025/2026 o'quv yilidan boshlab [7-ilovadagi](#) texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Belgilansinki:

[7-ilovadagi](#) texnikumlarga to'liq akademik mustaqillik beriladi va ularning faoliyati [8-ilovadagi](#) tartibga muvofiq tashkil etiladi;

[7-ilovadagi](#) texnikumlarda [9-ilovaga](#) muvofiq kvalifikatsiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

xalqaro ta'lim dasturlari asosida ta'lim olgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha diplom (sertifikat) hamda kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi;

7-ilovadagi texnikumlarni saqlash xarajatlari Davlat budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

Kasbiy ta'lim agentligiga davlat texnikumlarida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish uchun xorijiy tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga ruxsat beriladi.

(9-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)

10. Kasbiy ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish va texnikumlar rahbar kadrlarini tanlash hamda tayinlash jarayonlari shaffofligini ta'minlash maqsadida:

a) kasbiy ta'lim tizimida yagona davlat siyosatini yuritish bo'yicha mas'ul organ etib Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilansin;

b) mazkur Farmonning **1-ilovasidagi** texnikumlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufiga o'tkazilsin.

Bunda texnikumlarning yer uchastkalari, bino va inshootlari hamda boshqa ko'chmas mulk obyektlarini boshqa korxonaga va tashkilotlarga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjati asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin;

v) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda davlat texnikumlarida to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash vakolati berilsin;

g) 2025-yil 1-yanvardan boshlab texnikumlarning direktor va direktor o'rinbosari lavozimlariga talabgorlarni ochiq tanlov asosida tanlash tartibi joriy qilinsin. Bunda, belgilab qo'yilsinki:

tanlov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus elektron platformasi orqali amalga oshiriladi;

tanlov o'tkazishga tegishli iqtisodiyot tarmoqlari va ish beruvchilar vakillari jalb etilishi mumkin;

direktor va direktor o'rinbosarlari bilan ular tomonidan taqdim etilgan strategik rejaga asosan uch yillik mehnat shartnomasi tuziladi;

muddati tugagandan so'ng direktor va direktor o'rinbosarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi strategik rejada belgilangan vazifalarning bajarilganligiga qarab, kelgusi uch yilga uzaytirilishi mumkin.

11. O'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etilsin.

Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari **10-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

12. Jamg'armani boshlang'ich moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov) 2025-yil 1-aprelga qadar Davlat budjetidan 50 milliard so'm miqdordagi mablag'larni;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov) 2025-yil 1-sentabrga qadar Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga taqsimlanadigan qismidan 50 milliard so'm miqdordagi mablag'larni Jamg'armaga yo'naltirsin.

13. 2025 — 2027-yillarda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari **12-ilovaga** muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

15. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov):

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar 2026 — 2030-yillarda kasbiy ta'lim tizimining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish dasturini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

16. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 16-oktabr,
PF-158-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
1-ILOVA

Negizida texnikumlar tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ro'yxati*

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	T/r	Tuman (shahar) nomi	Ta'lim tashkilotining amaldagi nomi	Yangi tashkil etilayotgan texnikumlar nomi*	Quvvati*	Texnikum biriktirilgan oliy ta'lim muassasasi nomi*
Qoraqalpog'iston Respublikasi						
1.	1.	Amudaryo tumani	Amudaryo muhandislik texnikumi	Amudaryo muhandislik-texnologiyalar texnikumi	960	Qoraqalpoq davlat universiteti
2.	2.	Amudaryo tumani	Amudaryo tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Amudaryo tuman 1-son politexnikumi	900	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
3.	3.	Amudaryo tumani	Amudaryo tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Amudaryo tuman 2-son politexnikumi	360	Qoraqalpoq davlat universiteti
4.	4.	Beruniy tumani	Beruniy tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Beruniy tuman 1-son politexnikumi	600	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
5.	5.	Beruniy tumani	Beruniy tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Beruniy tuman 2-son politexnikumi	720	Qoraqalpoq davlat universiteti
6.	6.	Beruniy tumani	Beruniy suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji	Beruniy agrotexnologiyalar texnikumi	900	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
7.	7.	Bo'zatov tumani	Bo'zatov tuman kasb-hunar maktabi	Bo'zatov tuman politexnikumi	450	Qoraqalpoq davlat universiteti
8.	8.	Kegeyli tumani	Kegeyli xizmat ko'rsatish texnikumi	Kegeyli xizmat ko'rsatish va servis texnikumi	600	Qoraqalpoq davlat universiteti
9.	9.	Kegeyli tumani	Kegeyli tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Kegeyli tuman 1-son politexnikumi	540	Qoraqalpoq davlat universiteti

10.	10.	Kegeyli tumani	Kegeyli tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Kegeyli tuman 2-son politexnikumi	600	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
11.	11.	Kegeyli tumani	Kegeyli suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji	Kegeyli agrotexnologiyalar texnikumi	540	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
12.	12.	Qonliko'l tumani	Qonliko'l tuman kasb-hunar maktabi	Qonliko'l transport va servis texnikumi	1020	Qoraqalpoq davlat universiteti
13.	13.	Qorao'zak tumani	Qorao'zak agroiqtisodiyot texnikumi	Qorao'zak agroiqtisodiyot texnikumi	720	Qoraqalpoq davlat universiteti
14.	14.	Qorao'zak tumani	Qorao'zak tuman kasb-hunar maktabi	Qorao'zak tuman politexnikumi	600	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
15.	15.	Qo'ng'iro't tumani	Qo'ng'iro't Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Qo'ng'iro't Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	540	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
16.	16.	Qo'ng'iro't tumani	Qo'ng'iro't sanoat texnikumi	Qo'ng'iro't sanoat texnikumi	540	Qoraqalpoq davlat universiteti
17.	17.	Qo'ng'iro't tumani	Qo'ng'iro't tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Qo'ng'iro't tuman politexnikumi	900	Qoraqalpoq davlat universiteti
18.	18.	Mo'ynoq tumani	Mo'ynoq tuman kasb-hunar maktabi	Mo'ynoq tuman politexnikumi	720	Qoraqalpoq davlat universiteti
19.	19.	Nukus tumani	Nukus tuman kasb-hunar maktabi	Nukus tuman politexnikumi	600	Qoraqalpoq davlat universiteti
20.	20.	Nukus shahri	Nukus Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Nukus Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1560	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
21.	21.	Nukus shahri	2-son Nukus Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	2-son Nukus Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	720	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
22.	22.	Nukus shahri	Qoraqalpog'iston Respublikasi Agro IT texnikumi	Nukus raqamli texnologiyalar texnikumi	360	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali
23.	23.	Nukus shahri	Nukus veterinariya meditsinasi texnikumi	Nukus veterinariya meditsinasi texnikumi	275	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali
24.	24.	Nukus shahri	Nukus transport texnikumi	Nukus transport texnikumi	1050	Toshkent davlat transport universiteti
25.	25.	Nukus shahri	Qoraqalpog'iston Respublikasi yuridik texnikumi	Qoraqalpog'iston yuridik texnikumi	540	Toshkent davlat yuridik universiteti
26.	26.	Nukus shahri	Nukus shahar 1-son kasb-hunar maktabi	Nukus shahar 1-son politexnikumi	600	Qoraqalpoq davlat universiteti
27.	27.	Nukus shahri	Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabi	Nukus shahar 2-son politexnikumi	360	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
28.	28.	Taxiatosh tumani	Taxiatosh pedagogika kolleji	Qoraqalpog'iston pedagogika texnikumi	1000	Nukus davlat pedagogika instituti

29.	29.	Taxiatosh tumani	Taxiatosh tuman kasb-hunar maktabi	Taxiatosh tuman politexnikumi	720	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
30.	30.	Taxtakopir tumani	Taxtakopir tuman kasb-hunar maktabi	Taxtakopir tuman politexnikumi	660	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
31.	31.	To'rtko'l tumani	To'rtko'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	To'rtko'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	720	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
32.	32.	To'rtko'l tumani	To'rtko'l ko'p tarmoqli texnikumi	To'rtko'l tuman 1-son politexnikumi	720	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
33.	33.	To'rtko'l tumani	To'rtko'l tuman 1-son kasb-hunar maktabi	To'rtko'l tuman 2-son politexnikumi	720	Qoraqalpoq davlat universiteti
34.	34.	To'rtko'l tumani	To'rtko'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi	To'rtko'l tuman 3-son politexnikumi	900	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
35.	35.	Xo'jayli tumani	Xo'jayli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Xo'jayli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1000	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
36.	36.	Xo'jayli tumani	Xo'jayli xizmat ko'rsatish va servis texnikumi	Xo'jayli xizmat ko'rsatish va servis texnikumi	435	Qoraqalpoq davlat universiteti
37.	37.	Xo'jayli tumani	Xo'jayli ko'p tarmoqli texnikumi	Xo'jayli tuman 1-son politexnikumi	750	Qoraqalpoq davlat universiteti
38.	38.	Xo'jayli tumani	Xo'jayli tuman kasb-hunar maktabi	Xo'jayli tuman 2-son politexnikumi	540	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
39.	39.	Chimboy tumani	Chimboy tuman kasb-hunar maktabi	Chimboy tuman politexnikumi	600	Qoraqalpoq davlat universiteti
40.	40.	Shumanay tumani	Shumanay tuman kasb-hunar maktabi	Shumanay tuman politexnikumi	900	Qoraqalpoq davlat universiteti
41.	41.	Ellikqal'a tumani	Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	875	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
42.	42.	Ellikqal'a tumani	Ellikqal'a tuman kasb-hunar maktabi	Ellikqal'a tuman politexnikumi	780	Qoraqalpoq davlat universiteti
43.	43.	Ellikqal'a tumani	Bo'ston axborot kommunikatsiyalar texnikumi	Ellikqal'a raqamli texnologiyalar texnikumi	1050	Qoraqalpoq davlat universiteti
Andijon viloyati						
44.	1.	Andijon shahri	Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1480	Andijon davlat tibbiyot instituti
45.	2.	Andijon shahri	Andijon media ta'lim texnikumi	Andijon media-ta'lim texnikumi	1200	Andijon davlat universiteti

46.	3.	Andijon shahri	Andijon transport texnikumi	Andijon transport texnikumi	1030	Toshkent davlat transport universiteti
47.	4.	Andijon shahri	Andijon shahar pedagogika kolleji	Andijon pedagogika texnikumi	810	Andijon davlat pedagogika instituti
48.	5.	Andijon shahri	Andijon viloyati yuridik texnikumi	Andijon yuridik texnikumi	1280	Toshkent davlat yuridik universiteti
49.	6.	Andijon shahri	Andijon arxitektura-qurilish texnikumi	Andijon qurilish va transport texnikumi	930	Andijon mashinasozlik instituti
50.	7.	Andijon shahri	Andijon shahar 1-son kasb-hunar maktabi	Andijon shahar 1-son politexnikumi	600	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
51.	8.	Andijon shahri	Andijon shahar 2-son kasb-hunar maktabi	Andijon shahar 2-son politexnikumi	750	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
52.	9.	Andijon shahri	Andijon shahar 3-son kasb-hunar maktabi	Andijon shahar 3-son politexnikumi	660	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
53.	10.	Andijon shahri	Andijon shahar 4-son kasb-hunar maktabi	Andijon shahar 4-son politexnikumi	720	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
54.	11.	Andijon shahri	Andijon shahar 5-son kasb-hunar maktabi	Andijon shahar 5-son politexnikumi	900	Andijon davlat chet tillari instituti
55.	12.	Andijon shahri	Andijon turizm va servis kolleji	Andijon turizm va madaniy meros texnikumi	795	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
56.	13.	Andijon tumani	Andijon axborot texnologiyalari texnikumi	Andijon raqamli texnologiyalar texnikumi	900	Andijon davlat universiteti
57.	14.	Andijon tumani	Andijon tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Andijon tuman 1-son politexnikumi	450	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
58.	15.	Andijon tumani	Andijon tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Andijon tuman 2-son politexnikumi	870	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
59.	16.	Andijon tumani	Andijon tuman 3-son kasb-hunar maktabi	Andijon tuman 3-son politexnikumi	765	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
60.	17.	Asaka tumani	Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1080	Andijon davlat tibbiyot instituti
61.	18.	Asaka tumani	Asaka agrotexnologiyalar texnikumi	Asaka transport va mashinasozlik texnikumi	900	Andijon mashinasozlik instituti
62.	19.	Asaka tumani	Asaka tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Asaka tuman 1-son politexnikumi	615	Andijon davlat universiteti
63.	20.	Asaka tumani	Asaka tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Asaka tuman 2-son politexnikumi	450	Andijon mashinasozlik instituti
64.	21.	Asaka tumani	Asaka tuman 3-son kasb-hunar maktabi	Asaka tuman 3-son politexnikumi	720	Andijon mashinasozlik instituti
65.	22.	Baliqchi tumani	Baliqchi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Baliqchi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	735	Andijon davlat tibbiyot instituti
66.	23.	Baliqchi tumani	Baliqchi tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Baliqchi tuman 1-son politexnikumi	750	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
67.	24.	Baliqchi tumani	Baliqchi tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Baliqchi tuman 2-son politexnikumi	615	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

68.	25.	Buloqboshi tumani	Buloqboshi tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Buloqboshi tuman 1-son politexnikumi	1005	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
69.	26.	Buloqboshi tumani	Buloqboshi tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Buloqboshi tuman 2-son politexnikumi	615	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
70.	27.	Bo'ston tumani	Bo'ston Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Bo'ston Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1080	Andijon davlat tibbiyot instituti
71.	28.	Bo'ston tumani	Bo'ston tuman kasb-hunar maktabi	Bo'ston tuman politexnikumi	600	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
72.	29.	Jalaquduq tumani	Jalaquduq tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Jalaquduq tuman 1-son politexnikumi	615	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
73.	30.	Jalaquduq tumani	Jalaquduq tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Jalaquduq tuman 2-son politexnikumi	585	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
74.	31.	Izboskan tumani	Izboskan agrosanoat texnikumi	Izboskan agrotexnologiyalar texnikumi	1080	Andijon davlat universiteti
75.	32.	Izboskan tumani	Izboskan tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Izboskan tuman 1-son politexnikumi	990	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
76.	33.	Izboskan tumani	Izboskan tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Izboskan tuman 2-son politexnikumi	1005	Andijon mashinasozlik instituti
77.	34.	Qo'rg'ontepa tumani	Qo'rg'ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Qo'rg'ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	735	Andijon davlat tibbiyot instituti
78.	35.	Qo'rg'ontepa tumani	Qo'rg'ontepa tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Qo'rg'ontepa tuman 1-son politexnikumi	450	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
79.	36.	Qo'rg'ontepa tumani	Qo'rg'ontepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Qo'rg'ontepa tuman 2-son politexnikumi	900	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
80.	37.	Marhamat tumani	Andijon veterinariya meditsinasi texnikumi	Andijon veterinariya meditsinasi texnikumi	1240	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
81.	38.	Marhamat tumani	Marhamat tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Marhamat tuman 1-son politexnikumi	720	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
82.	39.	Marhamat tumani	Marhamat tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Marhamat tuman 2-son politexnikumi	930	Andijon mashinasozlik instituti
83.	40.	Marhamat tumani	Marhamat agrotexnologiyalar texnikumi	Marhamat agrotexnologiyalar texnikumi	1200	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
84.	41.	Oltinko'l tumani	Oltinko'l iqtisodiyot texnikumi	Oltinko'l iqtisodiyot va servis texnikumi	1080	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
85.	42.	Oltinko'l tumani	Oltinko'l tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Oltinko'l tuman 1-son politexnikumi	900	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
86.	43.	Oltinko'l tumani	Oltinko'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Oltinko'l tuman 2-son politexnikumi	900	Andijon mashinasozlik instituti
87.	44.	Paxtaobod tumani	Paxtaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Paxtaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	735	Andijon davlat tibbiyot instituti

88.	45.	Paxtaobod tumani	Paxtaobod qishloq xo'jaligi texnikumi	Paxtaobod agrotexnologiyalar texnikumi	720	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
89.	46.	Paxtaobod tumani	Paxtaobod tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Paxtaobod tuman 1-son politexnikumi	540	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
90.	47.	Paxtaobod tumani	Paxtaobod tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Paxtaobod tuman 2-son politexnikumi	615	Andijon mashinasozlik instituti
91.	48.	Ulug'nor tumani	Ulug'nor tuman kasb-hunar maktabi	Ulug'nor tuman politexnikumi	900	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
92.	49.	Xonobod shahri	Xonobod shahar kasb-hunar maktabi	Xonobod shahar 1-son politexnikumi	750	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
93.	50.	Xonobod shahri	Xonobod sanoat texnikumi	Xonobod shahar 2-son politexnikumi	820	Andijon davlat universiteti
94.	51.	Xo'jaobod tumani	Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	735	Andijon davlat tibbiyot instituti
95.	52.	Xo'jaobod tumani	Xo'jaobod tuman kasb-hunar maktabi	Xo'jaobod tuman politexnikumi	750	Andijon mashinasozlik instituti
96.	53.	Shahrixon tumani	Shahrixon agrotexnologiyalar texnikumi	Shahrixon agrotexnologiyalar texnikumi	900	Andijon davlat universiteti
97.	54.	Shahrixon tumani	Shahrixon agrosanoat texnikumi	Shahrixon agrosanoat texnikumi	450	Andijon davlat universiteti
98.	55.	Shahrixon tumani	Shahrixon tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Shahrixon tuman 1-son politexnikumi	720	Andijon mashinasozlik instituti
99.	56.	Shahrixon tumani	Shahrixon tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Shahrixon tuman 2-son politexnikumi	825	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Buxoro viloyati						
100.	1.	Buxoro tumani	Buxoro tuman kasb-hunar maktabi	Buxoro tuman politexnikumi	720	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
101.	2.	Buxoro tumani	Galaosiyo suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji	Buxoro tuman ekologiya va servis texnikumi	540	Buxoro davlat universiteti
102.	3.	Buxoro shahri	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi	750	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
103.	4.	Buxoro shahri	Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1500	Buxoro davlat tibbiyot instituti
104.	5.	Buxoro shahri	Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi	Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumi	1050	Toshkent davlat transport universiteti
	6.	Buxoro shahri	Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi			
105.	7.	Buxoro shahri	Buxoro neft va gaz sanoati kolleji	Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi	900	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
106.	8.	Buxoro shahri	Buxoro shahar kasb-hunar maktabi	Buxoro shahar politexnikumi	900	Buxoro davlat universiteti
107.	9.	Buxoro shahri	Buxoro soliq texnikumi	Buxoro soliq texnikumi	450	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

109.	11.	Buxoro shahri	Buxoro viloyati yuridik texnikumi	Buxoro yuridik texnikumi	750	Toshkent davlat yuridik universiteti
110.	12.	Vobkent tumani	Vobkent sanoat va transport texnikumi	Vobkent sanoat va transport texnikumi	780	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
111.	13.	Vobkent tumani	Vobkent tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Vobkent tuman 1-son politexnikumi	540	Buxoro davlat universiteti
112.	14.	Vobkent tumani	Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Vobkent tuman 2-son politexnikumi	540	Buxoro davlat universiteti
113.	15.	G'ijduvon tumani	G'ijduvon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	G'ijduvon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	900	Buxoro davlat tibbiyot instituti
114.	16.	G'ijduvon tumani	G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi	G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi	600	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
115.	17.	G'ijduvon tumani	G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi	G'ijduvon tuman 1-son politexnikumi	720	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
116.	18.	G'ijduvon tumani	G'ijduvon tuman 2-son kasb-hunar maktabi	G'ijduvon tuman 2-son politexnikumi	900	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
117.	19.	G'ijduvon tumani	G'ijduvon tuman 3-son kasb-hunar maktabi	G'ijduvon tuman 3-son politexnikumi	645	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
118.	20.	Jondor tumani	Jondor tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Jondor tuman politexnikumi	900	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
119.	21.	Jondor tumani	Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Jondor agrotexnologiyalar texnikumi	645	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
120.	22.	Kogon tumani	Kogon tuman kasb-hunar maktabi	Kogon tuman politexnikumi	730	Buxoro davlat pedagogika instituti
121.	23.	Kogon shahri	Kogon shahar kasb-hunar maktabi	Kogon shahar politexnikumi	720	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
122.	24.	Qorako'l tumani	Qorako'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Qorako'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	460	Buxoro davlat tibbiyot instituti
123.	25.	Qorako'l tumani	Qorako'l pedagogika kolleji	Buxoro pedagogika texnikumi	330	Buxoro davlat pedagogika instituti
124.	26.	Qorako'l tumani	Qorako'l tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Qorako'l tuman 1-son politexnikumi	555	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

125.	27.	Qorako'l tumani	Qorako'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Qorako'l tuman 2-son politexnikumi	615	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
126.	28.	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor tuman kasb-hunar maktabi	Qorovulbozor tuman politexnikumi	600	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
127.	29.	Olot tumani	Olot tuman kasb-hunar maktabi	Olot tuman politexnikumi	810	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
128.	30.	Peshku tumani	Afshona Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Afshona Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	540	Buxoro davlat tibbiyot instituti
129.	31.	Peshku tumani	Peshku tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Peshku tuman 1-son politexnikumi	900	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
130.	32.	Peshku tumani	Peshku tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Peshku tuman 2-son politexnikumi	615	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
131.	33.	Romitan tumani	Romitan tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Romitan tuman 1-son politexnikumi	720	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
132.	34.	Romitan tumani	Romitan tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Romitan tuman 2-son politexnikumi	795	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
133.	35.	Romitan tumani	Romitan agrotexnologiyalar texnikumi	Romitan tuman 3-son politexnikumi	600	Toshkent davlat agrar universiteti
134.	36.	Shofirkon tumani	Buxoro axborot texnologiyalari texnikumi	Shofirkon raqamli texnologiyalar texnikumi	615	Buxoro davlat universiteti
135.	37.	Shofirkon tumani	Shofirkon qishloq xo'jaligi mahsulotlari texnologiyasi texnikumi	Shofirkon agrotexnologiyalar texnikumi	970	Buxoro davlat universiteti
136.	38.	Shofirkon tumani	Shofirkon tuman kasb-hunar maktabi	Shofirkon tuman politexnikumi	900	Buxoro davlat universiteti
Jizzax viloyati						
137.	1.	Arnasoy tumani	Arnasoy tuman kasb-hunar maktabi	Arnasoy tuman politexnikumi	450	Jizzax politexnika instituti
138.	2.	Baxmal tumani	Baxmal iqtisodiyot va turizm texnikumi	Baxmal iqtisodiyot va turizm texnikumi	420	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
139.	3.	Baxmal tumani	Baxmal tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Baxmal tuman 1-son politexnikumi	570	O'zbekiston Milliy universiteti
140.	4.	Baxmal tumani	Baxmal tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Baxmal tuman 2-son politexnikumi	685	Jizzax politexnika instituti
141.	5.	G'allaorol tumani	G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi	G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi	720	Jizzax davlat pedagogika universiteti
142.	6.	G'allaorol tumani	G'allaorol agrotexnologiyalar texnikumi	G'allaorol agrotexnologiyalar texnikumi	720	Toshkent davlat agrar universiteti

143.	7.	G'allaorol tumani	G'allaorol tuman 1-son kasb-hunar maktabi	G'allaorol tuman 1-son politexnikumi	720	Jizzax politexnika instituti
144.	8.	G'allaorol tumani	G'allaorol tuman 2-son kasb-hunar maktabi	G'allaorol tuman 2-son politexnikumi	600	Jizzax politexnika instituti
145.	9.	G'allaorol tumani	G'allaorol Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	G'allaorol Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	720	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
146.	10.	Do'stlik tumani	Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	930	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
147.	11.	Jizzax shahri	Jizzax viloyati yuridik texnikumi	Jizzax yuridik texnikumi	585	Toshkent davlat yuridik universiteti
148.	12.	Jizzax shahri	Jizzax arxitektura va qurilish texnikumi	Jizzax shahar 1-son politexnikumi	500	Jizzax politexnika instituti
149.	13.	Jizzax shahri	Jizzax shahar kasb-hunar maktabi	Jizzax shahar 2-son politexnikumi	600	Jizzax davlat pedagogika universiteti
150.	14.	Jizzax shahri	Jizzax Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Jizzax Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1350	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
151.	15.	Zarbdor tumani	Zarbdor tuman kasb-hunar maktabi	Zarbdor tuman 1-son politexnikumi	810	Jizzax politexnika instituti
152.	16.	Zarbdor tumani	Zomin 1-son kasb-hunar maktabi	Zarbdor tuman 2-son politexnikumi	450	Jizzax politexnika instituti
153.	17.	Zomin tumani	Zomin turizm va servis kolleji	Zomin turizm va madaniy meros texnikumi	720	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
154.	18.	Zomin tumani	Zomin Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Zomin Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1170	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
155.	19.	Zomin tumani	Zomin tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Zomin tuman 1-son politexnikumi	750	Jizzax politexnika instituti
156.	20.	Zomin tumani	Zomin tumani ko'p tarmoqli texnikumi	Zomin tuman 2-son politexnikumi	615	Toshkent farmatsevtika instituti
157.	21.	Mirzacho'l tumani	Mirzacho'l agrosanoat texnikumi	Mirzacho'l agrosanoat texnikumi	630	Jizzax davlat pedagogika universiteti
158.	22.	Mirzacho'l tumani	Mirzacho'l tuman kasb-hunar maktabi	Mirzacho'l tuman politexnikumi	720	Jizzax politexnika instituti
159.	23.	Paxtakor tumani	Paxtakor pedagogika kolleji	Jizzax pedagogika texnikumi	405	Jizzax davlat pedagogika universiteti
160.	24.	Paxtakor tumani	Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumi	Paxtakor tuman 1-son politexnikumi	720	Jizzax politexnika instituti
161.	25.	Paxtakor tumani	Paxtakor tuman kasb-hunar maktabi	Paxtakor tuman 2-son politexnikumi	650	Jizzax politexnika instituti
162.	26.	Forish tumani	Forish tuman kasb-hunar maktabi	Forish tuman politexnikumi	450	O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
163.	27.	Sh.Rashidov tumani	Sharof Rashidov politexnika texnikumi	Sharof Rashidov transport texnikumi	645	Toshkent davlat transport universiteti

164.	28.	Sh.Rashidov tumani	Jizzax axborot texnologiyalari texnikumi	Jizzax raqamli texnologiyalari texnikumi	900	O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
165.	29.	Sh.Rashidov tumani	Sharof Rashidov tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Sharof Rashidov tuman 1-son politexnikumi	600	Jizzax politexnika instituti
166.	30.	Sh.Rashidov tumani	Sharof Rashidov tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Sharof Rashidov tuman 2-son politexnikumi	720	Jizzax politexnika instituti
167.	31.	Yangiobod tumani	Yangiobod tuman kasb-hunar maktabi	Yangiobod tuman politexnikumi	450	O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Qashqadaryo viloyati						
168.	1.	G'uzor tumani	G'uzor tuman 1-son kasb-hunar maktabi	G'uzor tuman 1-son politexnikumi	720	Qarshi davlat universiteti
169.	2.	G'uzor tumani	G'uzor tuman 2-son kasb-hunar maktabi	G'uzor tuman 2-son politexnikumi	900	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
170.	3.	G'uzor tumani	G'uzor energetika sanoati texnikumi	G'uzor tuman 3-son politexnikumi	900	Qarshi davlat universiteti
171.	4.	G'uzor tumani	G'uzor sanoat texnikumi	G'uzor sanoat va texnologiyalar texnikumi	540	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
172.	5.	Dehqonobod tumani	Dehqonobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Dehqonobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	405	Toshkent farmatsevtika instituti
173.	6.	Dehqonobod tumani	Dehqonobod tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Dehqonobod tuman 1-son politexnikumi	750	Qarshi davlat universiteti
174.	7.	Dehqonobod tumani	Dehqonobod tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Dehqonobod tuman 2-son politexnikumi	540	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
175.	8.	Kasbi tumani	Kasbi oziq-ovqat sanoati texnikumi	Kasbi sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi	435	Qarshi davlat universiteti
176.	9.	Kasbi tumani	Kasbi tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Kasbi tuman 1-son politexnikumi	900	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
177.	10.	Kasbi tumani	Kasbi tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Kasbi tuman 2-son politexnikumi	750	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
178.	11.	Kasbi tumani	Kasbi suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji	Kasbi agrotexnologiyalar texnikumi	750	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
179.	12.	Kitob tumani	Kitob tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Kitob tuman 1-son politexnikumi	900	Qarshi davlat universiteti

180.	13.	Kitob tumani	Kitob tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Kitob tuman 2-son politexnikumi	600	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
181.	14.	Kitob tumani	Kitob tuman 3-son kasb-hunar maktabi	Kitob tuman 3-son politexnikumi	600	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
182.	15.	Koson tumani	Koson agrotexnologiyalar texnikumi	Koson agrotexnologiyalar texnikumi	900	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
183.	16.	Koson tumani	Koson pedagogika kolleji	Qashqadaryo pedagogika texnikumi	730	Toshkent shahridagi Puchon universiteti
184.	17.	Koson tumani	Koson tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Koson tuman 1-son politexnikumi	960	Qarshi davlat universiteti
185.	18.	Koson tumani	Koson tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Koson tuman 2-son politexnikumi	600	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
186.	19.	Koson tumani	Koson tuman 3-son kasb-hunar maktabi	Koson tuman 3-son politexnikumi	675	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
187.	20.	Ko‘kdala tumani	Ko‘kdala tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Ko‘kdala tuman politexnikumi	900	Qarshi davlat universiteti
188.	21.	Qamashi tumani	Qamashi veterinariya meditsinasi texnikumi	Qamashi veterinariya meditsinasi texnikumi	750	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
189.	22.	Qamashi tumani	Qamashi tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Qamashi tuman 1-son politexnikumi	540	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
190.	23.	Qamashi tumani	Qamashi tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Qamashi tuman 2-son politexnikumi	615	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
191.	24.	Qamashi tumani	Qamashi tuman 3-son kasb-hunar maktabi	Qamashi tuman 3-son politexnikumi	750	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
192.	25.	Qamashi tumani	Qamashi suv xo‘jaligi va melioratsiya kolleji	Qamashi agrotexnologiyalar texnikumi	750	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

193.	26.	Qarshi tumani	Qarshi tuman 1-son kasb-hunar maktabi	Qarshi tuman 1-son politexnikumi	615	Qarshi davlat universiteti
194.	27.	Qarshi tumani	Qarshi tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Qarshi tuman 2-son politexnikumi	615	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
195.	28.	Qarshi tumani	Qarshi dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumi	Qarshi dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumi	645	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
196.	29.	Qarshi tumani	Beshkent qishloq xo'jaligi texnikumi	Qarshi tuman agrosanoat texnikumi	750	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
2.	Hokim yordamchilarining takliflarini umumlashtirish. Tuman (shahar)da o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan uch yillik ehtiyojni sohalar, kasb va mutaxassisliklar hamda yillar kesimida shakllantirish. Bunda tegishli hududning ixtisoslashuvi, salohiyati, investitsiya loyihalari, tashkilotlardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari va mehnat bozori talablarini inobatga olish.	Har yili 20-yanvarga qadar	Tuman (shahar) hokimliklari
3.	Tuman (shahar) hokimliklarining takliflarini umumlashtirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan uch yillik ehtiyojni sohalar, kasb va mutaxassisliklar hamda yillar kesimida shakllantirish.	Har yili 1-fevralga qadar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari
4.	Tarmoqlarda o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan uch yillik ehtiyojni sohalar, kasb va mutaxassisliklar hamda yillar kesimida shakllantirish.	Har yili 1-fevralga qadar	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari
5.	Tadbirkorlik subyektlarining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan uch yillik ehtiyojini sohalar, kasb va mutaxassisliklar hamda yillar kesimida shakllantirish.	Har yili 1-fevralga qadar	Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlik subyektlarining birlashmalari
6.	Mehnat bozorida mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kasb va mutaxassisliklar kesimida shakllantirish.	Har yili 1-fevralga qadar	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
7.	Xorijiy ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini kasb va mutaxassisliklar kesimida shakllantirish.	Har yili 1-fevralga qadar	Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari, xususiy bandlik agentliklari

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
7-ILOVA

2025/2026 o'quv yilidan boshlab xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar RO'YXATI

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Kasbiy ta'lim tashkilotlari nomi
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahri	Nukus shahar 1-son politexnikumi <i>(Nukus shahri 1-son kasb-hunar maktabi)</i>
2.	Andijon viloyati	Asaka tumani	Asaka transport va mashinasozlik texnikumi <i>(Asaka agrotexnologiyalar texnikumi)</i>
3.	Buxoro viloyati	Buxoro shahri	Buxoro shahar politexnikumi <i>(Buxoro shahar kasb-hunar maktabi)</i>
4.	Jizzax viloyati	Jizzax shahri	Jizzax shahar 1-son politexnikumi <i>(Jizzax arxitektura va qurilish texnikumi)</i>
5.	Qashqadaryo viloyati	G'uzor tumani	G'uzor tuman 3-son politexnikumi <i>(G'uzor energetika sanoati texnikumi)</i>

6.	Navoiy viloyati	Navbahor tumani	Navbahor tuman 2-son politexnikumi (Navbahor tuman kasb-hunar maktabi)
7.	Namangan viloyati	Uychi tumani	Uychi tuman 1-son politexnikumi (Uychi tuman 1-son kasb-hunar maktabi)
8.	Samarqand viloyati	Samarqand shahri	Samarqand shahar 1-son politexnikumi (Samarqand shahar kasb-hunar maktabi)
9.	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tumani	Sirdaryo tuman politexnikumi (Sirdaryo tumani kasb-hunar maktabi)
10.	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri	Surxondaryo qurilish va kommunal xo'jaligi texnikumi (Surxondaryo arxitektura va qurilish texnikumi)
11.	Toshkent viloyati	Chirchiq shahri	Chirchiq shahar politexnikumi (Chirchiq shahar kasb-hunar maktabi)
12.	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahri	Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi
13.	Xorazm viloyati	Urganch shahri	Urganch shahar 2-son politexnikumi (Urganch shahar 2-son kasb-hunar maktabi)
14.	Toshkent shahri	Chilonzor tumani	Chilonzor tuman 1-son politexnikumi (Chilonzor tuman 1-son kasb-hunar maktabi)

Izoh: 2025/2026 o'quv yilidan boshlab xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar ro'yxatiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
8-ILOVA

Xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar faoliyatini tashkil qilish

TARTIBI

1. Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida mazkur Farmonning 7-ilovasida ko'rsatilgan texnikumlarning tuzilmasida mavjud shtat birliklari doirasida 7 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Xalqaro ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi (keyingi o'rinlarda — Bo'lim) tashkil etiladi.

Bunda:

Bo'lim texnikumning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi;

Bo'limga uning barcha o'quv va tashkiliy ishlariga mas'ul bo'lgan hamda maqomi bo'yicha texnikum direktori o'rinbosariga tenglashtirilgan Bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi;

Bo'lim boshlig'i ma'muriy va tashkiliy masalalarda texnikum direktoriga bo'ysunadi;

xalqaro ta'lim dasturlari bilan bog'liq barcha moliyaviy masalalar bo'yicha mas'uliyat texnikum direktori zimmasiga yuklatiladi.

2. Bo'limning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajalarida xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash;

milliy ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar va ta'lim dasturlari bilan integratsiya qilish;

xalqaro ta'lim dasturini taqdim etuvchi tashkilotlar bilan tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal qilish;

xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan malakalar bo'yicha o'qituvchilarni tanlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish;

xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida ta'lim olgan o'quvchilar hisobini yuritish;

xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim tashkilotlarida o'quv va amaliyot jarayonlarini muvofiqlashtirish;

xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'quv-metodik ta'minotini mustahkamlash;

xalqaro ta'lim dasturlarining talablari asosida yakuniy imtihonlar o'tkazish hamda bitiruvchilarga belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish.

3. Bo'lim xodimlari va xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar pedagoglari mehnatiga haq to'lash alohida tartib asosida amalga oshiriladi.

Bunda:

xodimlar va pedagoglarning ish haqi miqdorlariga har oylik 100 foiz ustama to'lanadi;

umumiy ish haqi jamg'armasiga nisbatan 50 foiz miqdorda moddiy rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etiladi;

moddiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan malakali va faoliyatida yuqori natijalarga erishgan xodimlar va pedagoglarga 200 foizgacha miqdorda ustama to'lanadi.

4. Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash kasbiy ta'limning boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus ta'lim darajalari bo'yicha kunduzgi va dual ta'lim shakllarida davlat granti asosida amalga oshiriladi.

5. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilarni qabul qilish ichki va tashqi mehnat bozori ehtiyojlari, o'quvchilarning qiziqishlari hamda ish beruvchilarning buyurtmalari asosida amalga oshiriladi.

6. Texnikumlarga ish beruvchilarning buyurtmalari va mablag'lari hisobidan shartnoma asosida xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha qo'shimcha guruhlar tashkil qilishga ruxsat etiladi.

Bunda xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha bir o'quvchini o'qitish qiymati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi va shartnomalar hisobidan tushgan mablag'lar xalqaro ta'lim dasturlari pedagog kadrlarini moddiy rag'batlantirish hamda texnikum moddiy-texnika bazasini yaxshilashga yo'naltiriladi.

7. Xalqaro ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarning diplomlari hamda to'plagan kredit (o'quv soat)lari ta'limning keyingi bosqichlarida tan olinadi.

8. Xalqaro ta'lim dasturlari doirasida o'quvchilarni xorijiy tillarga o'qitish tashkil etiladi.

9. Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish uchun ushbu Farmonning 7-ilovasidagi texnikumlarning bino va inshootlaridan zarur joy (xona) ajratiladi.

10. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha qabul qilingan o'quvchilar uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda texnikumlarning mavjud o'quv va amaliyot xonalaridan hamda moddiy-texnika bazasidan foydalanishga ruxsat etiladi.

11. Texnikum xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha yangi tashkil qilinadigan laboratoriya va ustaxonalar hamda xarid qilinadigan texnikalarni balansda saqlovchisi hisoblanadi.

Xalqaro ta'lim dasturlari doirasida tashkil etilgan laboratoriya va ustaxonalar hamda xarid qilingan texnikalardan texnikumning xalqaro ta'lim dasturlari va boshqa dasturlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda foydalanishga ruxsat beriladi.

12. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy hamkor ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda quyidagilarni amalga oshiradi:

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, texnikumlarda o'qitiladigan kasb va mutaxassisliklarni belgilash;

xorijiy hamkor ta'lim tashkilotlari tavsiyalari asosida xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha o'qishga qabul qilinadigan o'quvchilarni saralab olish;

kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy va mahalliy ish beruvchilar hamda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

texnikumlarga rahbar va pedagog xodimlarni ishga qabul qilish;

Xalqaro ta'lim dasturlarida tahsil olgan o'quvchilarning doimiy egallagan kasbiy malakasini tahlil qilish hamda ularning bilimlarini yakuniy baholashdan o'tkazib borish;

mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish orqali xalqaro ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning ishga joylashishiga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
9-ILOVA

2025/2026 o'quv yilida xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan kvalifikatsiyalar

RO'YXATI*

T/r	Kvalifikatsiyalar nomi	Xalqaro ta'lim dasturi darajasi
1.	Avtomobil texnologiyasi	3
2.	Axborot texnologiyalari	3
3.	Kiyim ishlab chiqarish texnologiyasi	3
4.	Qishloq xo'jaligi	3
5.	Qurilish muhandisligi	3
6.	Logistika operatsiyalari	3
7.	Mehmonxona biznesi (umumiy ovqatlanish xizmatlari)	3
8.	Biznes	3
9.	Sayohat va turizm	3
10.	Elektrotexnika va elektronika muhandisligi	3
11.	Ishlab chiqarish muhandisligi	3
12.	Raqamli muhandislik	3

* Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025/2026 o'quv yilida xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan kvalifikatsiyalar ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
10-ILOVA

Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari

1. Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'larini shakllantirish manbalari:

kasbiy ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontrakt shaklida o'qitishdan tushadigan mablag'larining moliya yili oxiriga qoldiq (tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan mablag'larini inobatga olingan holda) qismining 4 foizi miqdoridagi ajratmalari;

o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'implarning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tushgan qismi;

Jamg'armaning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga depozitga joylashtirishdan olingan foiz tarzidagi daromadlari;

xalqaro donorlarning grantlari va homiylik mablag'lari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

2. Jamg'armaning asosiy faoliyat yo'nalishlari:

kasbiy ta'lim tashkilotlarining uslubiy ta'minotini mustahkamlash, ularning bino va inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash;

kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonini raqamlashtirish;

kasbiy ta'lim sohasida tanlovlar o'tkazish hamda malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlarining malaka toifalarini baholashni tashkil etishda ishtirok etgan mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish;

“Kasbiy ta'lim” platformasini ishlab chiqish va lozim darajada ishlashini ta'minlash;

kasbiy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
11-ILOVA

2025 — 2027-yillarda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbasi	Ijro uchun mas'ullar
1.	Vazirlik, idora va tashkilotlari tasarrufi (tizimi)dagi kollej va texnikumlarni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufiga o'tkazish.	1. Tegishli kollej va texnikumlarni bino va inshootlari, tegishli hududi bilan birga operativ boshqaruv huquqi asosida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga o'tkazish. 2. Ishchi guruhlar tuzgan holda topshirish va qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish.	2024-yil noyabr-dekabr 2025-yil yanvar	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Ortikov), tasarrufida kollej va texnikumlar mavjud vazirlik, idora va tashkilotlar
2.	Texnikumlarning boshqaruv tizimini samarali tashkil etish choralarini ko'rish.	1. Texnikumlarning rahbar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'ini chiqarish. 2. Texnikumlarning rahbar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish hamda attestatsiya natijalariga ko'ra ularning lavozimiga loyiqqligi masalasini ko'rib chiqish. 3. Texnikumlarning vakant rahbarlik lavozimlariga malakali kadrlarni ishga olish.	2025-yil mart 2025-yil iyun 2025-yil avgust	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), manfaatdor vazirlik va idoralar

3.	Texnikumlarning o'quv amaliyotlari (modul amaliy mashg'ulotlari)da o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan xomashyo materiallari me'yorlarini ishlab chiqish.	<p>1. Kasb va mutaxassisliklar kesimida o'quv amaliyotlarida o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan xomashyo materiallari me'yorlarini ishlab chiqish yuzasidan tanlov e'lon qilish.</p> <p>2. Tanlovda ishtirok etgan talabgorlar takliflarini ko'rib chiqish va g'olibni aniqlash.</p> <p>3. Tanlov g'olibi deb topilgan tashabbuskorlar tomonidan me'yorlar ishlab chiqilishini tashkil etish hamda vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>4. Me'yorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.</p>	<p>2025-yil yanvar</p> <p>2025-yil mart</p> <p>Shartnomada belgilangan muddatlarda</p> <p>2025-yil dekabr</p>	<p>Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Adliya vazirligi</p> <p>(Tashkulov)</p>
4.	Texnikumlarni yuqori malakali rahbar va pedagog xodimlar bilan ta'minlash.	<p>1. Texnikumlarning rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish.</p> <p>2. Malaka oshirish jarayoniga xorijiy ekspertlarni jalb qilish.</p> <p>3. Texnikumlarning rahbar va pedagog xodimlarini tegishli tashkilotlarga stajirovkaga yuborish.</p>	<p>2024-yil dekabr</p> <p>2025-yil 1-yanvardan boshlab</p>	<p>Vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Savdo-sanoat palatasi</p> <p>(Vahobov)</p>
5.	Mehnat qonunchiligiga dual ta'limni tashkil etishga doir o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	<p>1. Dual ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar ish vaqtining davomiyligi, ularga ish haqi to'lanishi va ushbu jarayonlarni "Yagona milliy mehnat tizimi" IDAKka integratsiya qilish kabi masalalardan kelib chiqib, mehnat qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>2. Tayyorlangan takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil yanvar</p> <p>2025-yil may</p>	<p>-</p>	<p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p> <p>(Zaxidov),</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Savdo-sanoat palatasi</p> <p>(Vahobov)</p>
6.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish.	<p>1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbga qiziqishlarini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish.</p> <p>2. Maktablarning 7 — 9- va 10-11-sinf o'quvchilari uchun kasbiy ta'lim tashkilotlarida ochiq darslar tashkil etish.</p> <p>3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish.</p>	<p>Har yili yanvar-fevral oylarida</p> <p>Har yili mart — may oylarida</p> <p>Doimiy</p>	<p>-</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p> <p>(Umarova),</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari</p>
7.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish.	<p>1. Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Hukumat qarori loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2024-yil dekabr</p> <p>2025-yil fevral</p>	<p>-</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>(Fozilkarimov)</p>

8.	Texnikumlar faoliyatini yaxshilash bo'yicha xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etish.	<p>1. Xalqaro moliya institutlari bilan texnikumlar faoliyatini yaxshilash bo'yicha muzokaralar o'tkazish.</p> <p>2. Texnikumlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirishga hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlashga xalqaro moliya institutlarining grant va kredit mablag'larini jalb qilish.</p>	<p>2025-yil 1-fevraldan boshlab</p> <p>Kelishuvlarda ko'rsatilgan muddatlarda</p>	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari	<p>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi</p> <p>(<i>Qudratov</i>),</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(<i>Sharipov</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
9.	Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari bilimini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish.	<p>1. O'quvchilar bilimini baholashning yangi tartibini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh shakllantirish.</p> <p>2. Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari bilimini baholash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil may</p> <p>2025-yil iyun</p>	-	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(<i>Sharipov</i>),</p> <p>“Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi</p> <p>(<i>Xudaykulov</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
10.	Texnikumlarda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	<p>1. Texnikumlarda qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish tartibini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh shakllantirish.</p> <p>2. Texnikumlarda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil may</p> <p>2025-yil iyun</p>	-	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(<i>Sharipov</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
11.	Chet el fuqarolarini texnikumlarga o'qishga qabul qilish tartibini takomillashtirish.	<p>1. Xorijiy fuqarolarni texnikumlarga o'qishga qabul qilish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Xorijiy fuqarolarni texnikumlarga o'qishga qabul qilish va o'qishni ko'chirish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha tegishli hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar ishlab chiqish.</p> <p>3. Ishlab chiqilgan takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil may</p> <p>2025-yil iyul</p>	-	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(<i>Sharipov</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

12.	Texnikumlarga ish beruvchi tashkilotlarni birlashtirish.	<p>1. Texnikumlarga ularda tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklarga mos bo'lgan ish beruvchi tashkilotlarni birlashtirish.</p> <p>2. Ish beruvchi tashkilotlarda o'quvchilar amaliyotini tashkil etish.</p> <p>3. Texnikum o'qituvchilari uchun ish beruvchi tashkilotlarda stajirovkalar tashkil qilish.</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil aprel</p> <p>Jadval asosida</p>	-	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimligi,</p> <p>Savdo-sanoat palatasi</p> <p>(Vahobov),</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
13.	Texnikum o'quvchilarining kasblar bo'yicha xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta'minlash.	<p>1. Texnikum o'quvchilari uchun kasblar bo'yicha milliy chempionatlar o'tkazib borish.</p> <p>2. Texnikum o'quvchilarini "WorldSkills" va shu kabi boshqa xalqaro musobaqalarga tayyorlashni tashkil etish.</p> <p>3. Xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar va ularni tayyorlagan o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rish.</p>	<p>2025/2026 o'quv yilidan boshlab</p> <p>Musobaqalar jadvaliga muvofiq</p>	<p>Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari,</p> <p>homiyluk mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>"WorldSkills Uzbekistan"</p> <p>Ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish assotsiatsiyasi</p> <p>(Jo'rayev),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
14.	Kasbiy ta'lim va qisqa muddatli o'quv kurslarning dasturlari loyihalarini manfaatdor vazirlik va idoralar hamda ish beruvchilar bilan kelishish tizimini joriy etish.	<p>1. "Open space" tamoyili asosida kasbiy ta'lim va qisqa muddatli o'quv kurslarning dasturlari loyihalarini kelishuvdan o'tkazish bo'yicha elektron platformani yaratish yuzasidan texnik topshiriqni ishlab chiqish.</p> <p>2. Elektron platformani ishlab chiqish va ishga tushirish.</p> <p>3. "Open space" tamoyili asosida kasbiy ta'lim va qisqa muddatli o'quv kurslarning dasturlari loyihalarini manfaatdor vazirlik va idoralar hamda ish beruvchilar bilan kelishish tizimini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2025-yil aprel</p> <p>2025-yil iyun</p> <p>2025-yil avgust</p>	<p>Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p> <p>(Shermatov),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

15.	Texnikumlarda o'quvchilarni jalb qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish.	<p>1. Texnikumlarda o'quvchilarni jalb qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnikumlarda o'quvchilarni jalb qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish.</p> <p>3. O'quv amaliyoti jarayonida va darsdan bo'sh vaqtda o'quvchilar ishtirokida ishlab chiqarilgan yarimtayyor va tayyor mahsulotlarni (tovar, ish va xizmatlarni), shu jumladan, savdo shoxobchalarini tashkil qilgan holda namoyish qilish va sotish.</p>	2025-yil may 2025/2026 o'quv yilidan boshlab	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)
16.	Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash (EQAVET) tizimi asosida Milliy kasbiy ta'lim sifati mezonlarini ishlab chiqish.	<p>1. Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash (EQAVET) tizimi indikatorlari asosida milliy indikatorlarni ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnikumlarda sifatni ta'minlash bo'yicha milliy indikatorlarni bosqichma-bosqich joriy etish.</p>	2025-yil may 2026/2027 o'quv yilidan boshlab	Xalqaro grantlar, Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi (Xudaykulov)
17.	Negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tugatish.	<p>1. Negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlarining bino va inshootlarini tegishli hududi bilan birga operativ boshqaruv huquqi asosida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga o'tkazish.</p> <p>2. Ishchi guruhlar tuzgan holda topshirish va qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish.</p> <p>3. Negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv ustaxonasi jihozlari, laboratoriya, asbob-uskuna va adabiyotlarini ehtiyoj mavjud bo'lgan boshqa kasbiy ta'lim tashkilotlari balansiga o'tkazish.</p> <p>4. Negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlarining faoliyatini belgilangan tartibda bosqichma-bosqich tugatish va ularning huquqiy vorislarini belgilash.</p>	2025-yil iyun 2025-yil avgust 2025-yil sentabr 2025-yil oktabrdan boshlab bosqichma-bosqich	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova)

18.	O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari va tarif razryadlarini belgilovchi yagona tartibini ishlab chiqish.	<p>1. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi va pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari hamda tarif razryadlarini yagona normativ-huquqiy hujjatga jamlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>3. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini qayta ko'rib chiqish hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish.</p>	2025-yil avgust	-	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p><i>(Sharipov),</i></p> <p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p> <p><i>(Zaxidov),</i></p> <p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p><i>(Norqulov),</i></p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
19.	Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi hamda Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi negizida tashkil etilayotgan Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumi faoliyatini yo'lga qo'yish.	<p>1. Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumini Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi bino va inshootlariga joylashtirish.</p> <p>2. Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi bino va inshootlarini Buxoro pedagogika instituti balansiga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazish.</p> <p>3. Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumini Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi hamda Buxoro arxitektura va qurilish texnikumining huquqiy vorisi etib belgilash.</p> <p>4. Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumida Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi hamda Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi o'quvchilarining amaldagi ta'lim dasturlari asosida ta'limni yakunlash imkoniyatini yaratish.</p> <p>5. Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumidagi mavjud mebellar, jihozlar, ustaxona to'plamlari, laboratoriya va transport vositalarini Buxoro transport va qurilish texnologiyalari texnikumi hamda boshqa ehtiyoji mavjud bo'lgan kasbiy ta'lim tashkilotlari balansiga o'tkazish.</p> <p>6. Buxoro avtomobil va yo'llar texnikumi faoliyatini o'rnatilgan tartibda tugatish.</p>	2025/2026 o'quv yiliga qadar	-	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p><i>(Sharipov),</i></p> <p>Transport vazirligi</p> <p><i>(Maxkamov),</i></p> <p>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</p> <p><i>(Ortikov)</i></p>
20.	Texnikumlarning raqamli infratuzilmasini yaxshilash, ularda AR/VR laboratoriyalari, shourumlar hamda Wi-Fi hududlar tashkil etish.	<p>1. Texnikumlarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnikumlarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish, ularda AR/VR laboratoriyalari, shourumlar hamda Wi-Fi hududlar tashkil etish.</p>	<p>2025-yil sentabr</p> <p>2025-yil sentabrdan boshlab bosqichma-bosqich</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar, vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p><i>(Sharipov),</i></p> <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p> <p><i>(Shermatov),</i></p> <p>Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi</p> <p><i>(Qudratov)</i></p>

21.	Texnikumlar o'quv jarayoniga Germaniyaning ilg'or tajribalari va metodikalari asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini (keyingi o'rinlarda — tadbirkorlik dasturlari) joriy qilish.	Texnikumlar o'quv jarayoniga tadbirkorlik dasturlarini joriy qilish. Bunda: tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga muvofiq, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib o'qitish amaliyotini yo'lga qo'yish; mashg'ulotlarning Germaniyaning ilg'or tajribalari va metodikalari asosida malaka oshirgan va tegishli sertifikatlariga ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan olib borilishini ta'minlash.	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)
22.	Texnikumlar va oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash.	1. Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarini texnikumlarga o'rindoshlik asosida o'qituvchilik lavozimlariga jalb etish. 2. Texnikumlarga o'qituvchilik lavozimlariga jalb etilgan professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish.	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Oliy ta'lim tashkilotlari va texnikumlarning budgetdan tashqari hamda grant mablag'lari	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), manfaatdor vazirlik, idoralar, oliy ta'lim tashkilotlari
23.	Texnikumlarning xorijiy ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilishini ta'minlash.	1. Texnikum bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash bo'yicha xorijiy ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish va memorandumlarni imzolash. 2. Texnikumlarda xorijiy ish beruvchilar talablariga mos bo'lgan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish. 3. Xorijiy ekspert va mutaxassislar ishtirokida texnikum o'qituvchi va o'quvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish bo'yicha treninglar tashkil qilish.	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Manfaatdor vazirlik va idoralarning budget va budgetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining mablag'lari, Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Savdo-sanoat palatasi (Vahobov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov)
24.	Milliy ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirish.	1. Xalqaro ta'lim dasturlaridan kelib chiqib, kasbiy ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoriga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish. 2. Xalqaro ta'lim dasturlari va adabiyotlarni xarid qilish hamda tarjima qilish ishlarini tashkil qilish. 3. Tarjima qilingan xalqaro ta'lim dasturlarini milliy o'quv dasturlari mazmuniga singdirgan holda yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.	Xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan kelishilgan muddatlarda	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan Davlat budgeti mablag'lari, Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi (Xudaykulov), manfaatdor vazirlik va idoralar
25.	Texnikumlarda xorijiy va mahalliy ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda maqsadli kadrlar tayyorlashni joriy qilish bo'yicha karyera markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Karyera markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Texnikumlarning ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosarini jamoatchilik asosida karyera markazi rahbari lavozimiga tayinlash. 3. Karyera markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha hududiy seminar-treninglar tashkil etish.	2025-yil may 2025/2026 o'quv yilidan boshlab	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), manfaatdor vazirlik va idoralar

26.	Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish.	<p>1. Xorijiy tashkilot bilan xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish bo'yicha hamkorlik bitimini imzolash.</p> <p>2. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha adabiyotlarni xarid qilish, ularni tarjima qilish va texnikumlarga yetkazish.</p> <p>3. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish.</p> <p>4. Xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilar qabulini tashkil qilish.</p>	<p>2024-yil noyabr</p> <p>2025-yil may</p> <p>2025-yil fevral — iyun</p> <p>2025-yil may — iyul</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag'lari,</p> <p>Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>“Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi</p> <p>(Xudaykulov)</p>
27.	Texnikumlarning xalqaro ta'lim dasturlariga o'quvchilar qabulini tashkil qilish.	<p>1. Xalqaro ta'lim dasturlariga qabul haqidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish.</p> <p>2. O'quvchilarni qabul qilish.</p>	Har yili 1-noyabrga qadar	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag'lari	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari</p>
28.	Xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlarning xodimlari va pedagoglari mehnatiga haq to'lashning alohida tartibini joriy qilish.	<p>1. Xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlarning xodimlari va pedagoglari mehnatiga haq to'lashning alohida tartibini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tartibni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil fevral</p> <p>2025-yil may</p>	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan budget mablag'lari	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>(Norqulov)</p>
29.	Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan texnikumlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.	<p>1. Texnikumlarning o'quv xonalari va ustaxonalarini xalqaro ta'lim dasturlari talablaridan kelib chiqib ta'mirlash.</p> <p>2. Texnikumlarni zamonaviy mebel, o'quv qurollari va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash.</p> <p>3. Texnikumlarning ustaxonalari uchun zarur uskunalar va kompyuter to'plamlarini xarid qilish va yetkazib berish.</p>	<p>2025-yil may</p> <p>2025-yil iyun</p> <p>2025-yil iyul</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag'lari, mahalliy budget mablag'lari,</p> <p>Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p> <p>(Sharipov),</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

30.	Ommaviy axborot vositalarida Farmonning mazmuni va mohiyatini yoritish.	Ommaviy axborot vositalari orqali mazkur Farmon amalga oshirilishi to'g'risida aniq ko'rsatkichlar va natijalarni ifodalagan holda, tahliliy sharhlarni tizimli ravishda tayyorlash va e'lon qilib borish.	2024-yil oktabrdan boshlab doimiy	-	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi <i>(Djurabayev),</i> O'zbekiston Milliy axborot agentligi <i>(Ko'chimov),</i> Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi <i>(Sharipov),</i> "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi <i>(Xudaykulov)</i>
-----	---	--	-----------------------------------	---	--

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 16-
oktabrdagi PF-158-son Farmoniga
12-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ayrim hujjatlari

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonining 2-bandi **ikkinchi — to'rtinchi xatboshilari**, 3-bandi "a", "b", "v", "g", "e" kichik bandlari, "d" kichik bandining **ikkinchi va to'rtinchi xatboshilari** hamda 1 — 3-illovalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PF-6031-son Farmoniga ilovaning 1-bandi **ikkinchi xatboshisi**.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoniga 5-ilovaning 1 — 3-bandlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-6176-son Farmoniga 1-ilovaning 3-bandi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-6217-son Farmoniga 1-ilovaning 5-bandi "a" va "b" kichik bandlari.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-45-son Farmoniga 1-ilovaning 5-bandi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-94-son Farmoniga 1-ilovaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlari.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoniga 7-ilovaning 1-bandi "a" — "v" kichik bandlari.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PF-183-son Farmoniga ilovaning 2-bandi "a" kichik bandi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-214-son Farmoniga 1-ilovaning 2-bandi "a" kichik bandi.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-258-son Farmoniga 1-ilovaning 3-bandi "a" kichik bandi.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-107-son Farmoniga 1-ilovaning 6-bandi "a" kichik bandi.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5140-son qaroriga 4-ilovaning 2-bandi "a" kichik bandi.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qaroriga 6-ilovaning 34-pozitsiyasi.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-son qaroriga 3-ilovaning 1-bandi "a" kichik bandi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2024-y., 06/24/158/0839-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln
so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

